



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyun

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 2885,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 112,5 % ni tashkil etdi.
- Transport xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiyligi xizmatlar hajmida 26,2 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1538,3 ming.so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2885,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta hajm, transport xizmatlari (1005,4 mlrd.so'm) tashkil etadi.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



2018 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor shahrida (133,9 %), Buxoro shahrida (105,3 %), G'ijduvon (104,8 %), Romitan (104,8 %) tumanlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Kogon (100,2%) shahrida, Vobkent (102,7%), Olot va Jondor (103,2 %) tumanlarida kuzatildi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	2885,4	105,1
tumanlar:		
Olot	63,1	103,2
Buxoro	90,6	103,4
Vobkent	84,0	102,7
G'ijduvon	252,1	104,8
Kogon	40,2	103,9
Qorako'l	75,5	103,7
Qorovulbozor	61,5	133,9
Peshko'	58,5	103,8
Romitan	87,2	104,8
Jondor	67,2	103,2
Shofirkon	59,2	103,3
Buxoro sh.	1854,3	105,3
Kogon sh.	92,0	100,2

Tumanlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Buxoro shahriga (1854,3 mlrd.so'm), G'ijduvon tumaniga (252,1 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Kogon (40,2 mlrd.so'm), Peshko' (58,5 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida Buxoro shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi 64,3 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida tumanlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni G'ijduvon (8,7 %), Kogon (3,2 %) shahri, Buxoro (3,1 %) va Romitan (3,0 %) tumanlari tashkil etadi.


**2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha jami
xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi
(jami hajmga nisbatan), %**



Tumanlar o'rtasida eng past ulushlar Kogon (1,4 %), Peshko' (2,0 %), Qorovulbozor (2,1 %), Shofirkon (2,1 %) va Olot (2,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi .

2018 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1538,3 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 103,6 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahrida – 6702,4 ming.so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Shofirkon tumani – 343,8 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar (17,5 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (16,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (16,1 %), moliyaviy xizmatlar (12,5 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati - 108,3 %, me'morchilik sohasidagi xizmatlarning -105,3 %, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlarning - 113,4 %, moliyaviy sohasidagi xizmatlarning - 124,4 % ni tashkil etgan.